XALQ DEPUTATLARI URGANCH TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

Urganch tumani, Mustaqillik ko`chasi, 1-uy, +998 62 352 1818, 220500

2025-yil 30-dekabr VII-17-126-12-173-K/25 Urganch tumani

Xalq deputatlari Urganch tumani Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-3-021-12-173-K/24-sonli qaroriga o‘zgartirishlar kiritish to‘g`risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi “O‘zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyatini yo‘lga qo‘yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-402-sonli qarori hamda “Mahalla institutining jamiyatdagi ro`lini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 209-sonli farmoniga asosan bugungi kunda ushbu qaror va farmonning amaldagi qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqlashtirish uchun byudjet parametrlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish lozim.

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 127, 148-moddalari asosan Xalq deputatlari Urganch tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Urganch tumani 2025-yil mahalliy byudjetini daromadlar va harajatlar miqdorini teng miqdorda oshirish orqali daromadlari 125mlrd. 044 mln. 219 ming so‘m dan 125 mlrd. 681 mln. 219ming so‘mga hamda xarajatlari 125 mlrd. 044 mln. 219 ming so‘mdan 125 mlrd. 681 mln. 219 ming so‘mga o‘zgartirilib tasdiqlangan rejaga nisbatan daromadlar va xarajatlar 637 mln. so‘mga ko‘paygani ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Urganch tumani Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi “Urganch tumanining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g’risida”gi VII-3-021-12-173-K/24-sonli qarorining 1, 2, 3-ilovalariga quyidagicha:

2025-yil uchun Urganch tumani mahalliy budjet daromadlarning reja ko‘rsatkichlari 1-ilovaga;

2025-yil uchun Urganch tumani byudjetidan hududiy byudjet mablag’larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag’larning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga;

2025-yil uchun Urganch tumani mahalliy budjetining daromadlari va xarajatlarining chegaraviy hajmi 3-ilovaga;

3. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (R.Sabirov)ga daromadlar va xarajatlar rejasiga tegishli o‘zgartirishlar kiritilishini belgilangan tartibda rasmiylashtirish topshirilsin.

4. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **SULTANOV GAYRATJON PO‘LATOVICH**

Xalq deputatlari Urganch tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-17-126-12-173-K/25 -son qaror-
iga
1-ilova

2025-yil uchun Urganch tumani mahalliy budjet daromadlarning reja ko‘rsatkichlari

(ming so’mda)

T/r	Daromad turlari	Tasdiqlangan reja	Kiritilgan o‘zgarish	Tasdiqlangan reja
6	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadi-gan soliq	12 713 129.0	302 772.0	13 015 901.0
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer soliq	14 034 000.0	334 228.0	14 368 228.0

Xalq deputatlari Urganch tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-17-126-12-173-K/25 -son qaror-
iga
2-ilova

Urganch tuman budjetidan hududiy budjet mablag’larini taqsimlovchi-larga 2025-yil uchun ajratiladigan mablag'larning umumiy cheklangan miqdorlari

(ming so‘mda)

T/r	Ko‘rsatkichlar	Tasdiqlan-gan reja	Kiritilgan o‘zgarish	Tasdiqlanga reja
13	**O‘zbekiston Mahallalari uyush-masining tuman bo‘limi**	**1 856 000.0**	**637 000.0**	**2 493 000.0**
	shu jumladan: “Mahalla budjeti” jamg’armasi	1 856 000.0	637 000.0	2 493 000.0

Xalq deputatlari Urganch tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-17-126-12-173-K/25 -son qaror-
iga
3-ilova

2025-yiluchun Urganch tumani mahalliy budjetining daromadlari va xarajatlarining chegaraviy hajmi

(ming so‘mda)

T/r	Ko‘rsatkichi	Tasdiqlangan reja	Kiritilgan o‘zgarish	Tasdiqlangan reja
1	**Daromad**	125 044 219.0	637 000.0	125 681 219.0
2	**Xarajatlar**	125 044 219.0	637 000.0	125 681 219.0